

**Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi ichki audit xizmatining
2025-yil I yarim yillik faoliyati natijalari bo'yicha
HISOBOTI**

1. Umumiy ma'lumotlar.

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligida 2023-yil 1-avgustda 2 ta shtat birligidan iborat tashkiliy shakli bo'lim sifatida "Ichki audit bo'limi" tashkil etilgan bo'lib, IAMMS 0494 28.02.2024 ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega bo'lgan Sadikov Alisher Djalaliddinovich bo'lim boshlig'i va IAMMS 0608 29.06.2024 ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega Izbasarov Baxodir Ergashevich bosh mutaxassis lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Vazirlik tizimida jami 17 ta korxona va davlat muassasalari bo'lib, shundan byudjet tashkilotlari soni 4 tani, byudjetdan mablag' oluvchi va xo'jalik hisobidagi tashkilotlar soni 13 tani tashkil qiladi. Markaziy apparatda 2 ta, byudjet muassasalarida 2 ta bosh auditor shtat birliklari mavjud. (1-jadval).

2. Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalashtirilgan qismining bajarilishi holati.

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi Ichki audit bo'limi tomonidan 2025-yilda jami 9 ta nazorat tadbirlari o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan I yarim yillikda yillik rejadagi 5 ta tadbirlar o'tkazilgan, reja 100% foizga bajarildi.

Xisobot davrida rejadan tashqari ichki audit tadbirlari o'tkazilmadi.

O'tkazilgan ichki audit tadbirlarida 173 holatda jami 160,0 mln.so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan bo'lib, to'lig'icha mas'ul va tegishli shaxslardan undirilib, tiklanishi ta'minlandi.

Jumladan, "Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi" markaziy apparatida 13 holatda jami 46,7 mln.so'mlik xizmat safari ortiqcha to'lovlar aniqlanib, tegishli shaxslardan undirilishi ta'minlandi.

"O'zbekgeofizika" AJda 2023-2024 yillar davomida ish haqi, ta'til pullari, mehnatga layoqatsizlik varaqalari va xizmat safari to'lovlari bo'yicha jami 59 holatda 28,8 mln.so'mlik ortiqcha to'lovlar aniqlanib, tegishli shaxslardan to'liq undirildi.

"Navoiyuran" davlat korxonasi huzuridagi Uran va kamyob metallar ishlab chiqarish markazida 12-37-39-sonli brigadalar (aktirovka) xisobotlarida tovar moddiy boyliklar narxlarini xisobotga oshirib yozish natijasida jami 9 holatda 23,6 mln.so'm mablag' ortiqcha sarflanishiga yo'l qo'yilgan. Ushbu mablag' to'lig'icha byudjetga tiklanishi ta'minlandi.

"Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti" davlat muassasasida jami 60 holatda 44,8 mln.so'm mablag' tegishligicha va mas'ul shaxslardan

undirilish ta'minlandi. Jumladan, 9 holatda ilmiy darajaga ega xodimlarga meyordan ortiqcha 20,3 mln.so'm, 46 holatda horijiy tillar uchun milliy va xalqaro sertifikatga ega hodimlarga me'yordan ortiqcha 19,7 mln.so'm va 3 holatda ish haqi xizmat safari xarajatlari uchun 4,7 mln.so'm ortiqcha to'lovlar aniqlangan.

Shuningdek, "O'zbekgidrogeologiya" DMda 2023-2024 yillar davomida ish haqi, ta'til pullari va xizmat safari to'lovlari bo'yicha 32 holatda jami 16,1 mln.so'mlik ortiqcha to'lovlar aniqlanib, shundan 9,9 mln.so'm byudjetga tiklanishi ta'minlandi.

Vazirlikning Ichki audit xizmati xodimlari hamda ishchi guruh a'zolari tomonidan 5 ta ob'ektda profilaktika tadbirlari o'tkazilgan bo'lib, jami 8 holatda 6,6 mlrd.so'mlik samarasiz xarajatlar oldi olindi.

Jumladan, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-455-son Qaroriga asosan ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun ajratilgan 5,0 mlrd.so'm miqdordagi kapital qo'yilmalar ortiqcha rejalashtirilganligi aniqlanib, maqbullashtirish choralari ko'rildi.

Shuningdek, qarorning 9-bandi 8-xatboshisida "byudjet tashkilotlarining 2025 yil uchun xarajatlar smetasini tuzish jarayonida mebel va ofis jihozlari hamda tovar-moddiy zahiralarini harid qilish xarajatlari miqdorini 2024-yilga nisbatan 10% foizga kamaytirgan holda (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari va sog'liqni saqlash muassasalaridan tashqari) rejalashtirilsin" deb belgilangan. Shunga ko'ra, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Akademik litseyning 2025-yil smeta xarajatlaridan 367,3 mln.so'm va Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining 2025 yil xarajatlar smetasidan 932,1 mln.so'm hamda vakant shtatlar uchun rejalashtirilgan 8,8 ming.so'm mablag'ni maqbullashtirish uchun ko'rsatma berildi.

Bundan tashqari, Geologiya fanlar universitetida (Talabalar ijara to'lov xarajatlari)dan 201,1 mln.so'm va Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasida (Noturarjoy binolar ijara xarajatlari)dan 88,8 mln.so'm, (xizmat safari xarajatlari)dan 8,2 mln.so'm ortiqcha rejalashtirishga yo'l qo'yilganligi aniqlanib, maqbullashtirish choralari ko'rildi. (1,2,3 va 4-jadvallar).

3. Hisobot davrida o'tkazilishi rejalashtirilgan, lekin amalga oshirilmagan ichki audit tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Hisobot davrida o'tkazilishi rejalashtirilgan, biroq amalga oshirilmagan audit tadbirlari mavjud emas.

4. Ichki audit obyektlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Ichki audit bo'limi tomonidan o'tkazilgan 5 ta audit tadbirlari natijasida 37 ta taklif va tavsiyalar berilgan bo'lib, xisobot kuniga barchasi bajarilishi ta'minlangan. (6-jadval).

5. Hisob palatasining "Masofaviy nazorat" AAT orqali kelib tushgan xavf tahlillari.

Hisob palatasining "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali tahlillarda jami 4 holatda 387,7 mln.so'mlik risklar aniqlanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-116-sonli farmoning 3 bandi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-sonli qarorinnig ilovasi 21-bandi asosida tuzilganligini ma'lum bo'ldi.

6 ta (27,5 mln.so'm) risk YAMMTda mehnat shartnomalarsiz UzASBODA oylik ish haqi hisoblanganligi yuzasidan kelib tushgan. Holat o'rganilganda risklarning asosiy qismi tizim tashkilotlari tomonidan xodimlarga oylik ish haqi fuqorolik tusdagi shartnomalarga asosan hisoblanganligi yoki mehnat shartnomasi tugagandagi yakuniy to'lovlar amalga oshirilganligi aniqlangan.

Shuningdek, komplaens nazorat yo'nalishdagi Davlat ulushi mavjud korxonalarda nepotizm tahlili riski bo'yicha 1 505 ta risk korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi tomonidan hamda Davlat ulushi mavjud tashkilotlarida ishlovchilarning 4 va undan ortiq daromad manbaiga ega fuqarolar bo'yicha 73 ta (824,1 mln.so'm) risklar ichki audit bo'limi tomonidan o'rganish uchun nazoratga olinib bartaraf etildi. (7-jadval).

6. Ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta'minlash (baholash) va oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

Vazirlik tizimidagi ichki audit bo'limi xodimlarini doimiy ravishda malakasini oshirib borish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "O'quv markazi"ga 2025-yilda malakasini oshirish rejalashtirilgan ichki audit xizmati xodimlarining ro'yxati taqdim etilib, 3 nafar xodimlar 36 soatlik kurs bo'yicha o'z malakalarini oshirdi. (8-jadval).

7. Davlat organi va tashkiloti tizimidagi budget hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudget muassasa va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlarning monitoringi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar

Tizimida budget hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudget muassasa va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha nazorat tadbirlari o'tkazilmagan. (9-jadval).

8. Aniqlangan tizimli kamchiliklar, xavflar va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar (taklif va tavsiyalar)

- Iqtisodiyot va moliya vazirligi Budgetdan mablag' oluvchi davlat muassasalarini to'liq UzASBO-2 tizimiga o'tkazishni tezlashtirish.

- Xodimlarga beriladigan alohida ro'l tizimida qayta ko'rib chiqish kepak, бунда,

-Billing tizimida ishlovchi xodim UzASBO-2 dasturida tushumlarni ko'rish imkonini mavjud emas;

-Bir martalik va doimiy to'lovlar kadrlar hisobi modulidan ish haqi hisobi moduliga o'tkazish kerak;

-Xodimlar bilan hisob-kitoblarni to'g'ri hisobini yuritish uchun bir martalik va doimiy to'lovlar Kadrlar hisobi modulidan Ish haqi hisobi moduliga o'tkazish kerak. (10-jadval).

9. Davlat organi va tashkiloti faoliyatida budjet intizomini mustahkamlash, xavflarni profilaktika qilish hamda budjet xarajatlari natijadorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar.

Byudjetdan mablag' oluvchi davlat muassasalarini to'liq UzASBO-2 dasturiga o'tkazishni ta'minlash.

Ilmiy-tadqiqot institutlarida namunaviy shtat birliklari normativlarini ishlab chiqish.

10. Ichki audit xizmati faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar.

Ichki audit xizmatiga UzASBO-2 tizimida Vazirlik va idoralarda xodimlar kesimida daromadlarini bitta shaxsiy ish haqi ma'lumotnomasi (kartochka-spravka) olish imkonini yaratish.

Vazirlik va idoralarda ichki audit xizmati xodimlari shtat birliklarini me'yoriy normativ hujjatlari ishlab chiqish.

11. Ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash natijalari.

Vazirlik ichki audit xizmati xodimlari faoliyatining samaradorligi yig'ma ko'rsatkichlari 100% foizni tashkil eti, jumaladan byudjet to'g'risidagi qonunchilik buzilishining holatlarining oldini olishdagi natijalari 30% foizni, masofaviy nazoratni amalga oshirishdagi natijalar 30% foiz, ichki audit yillik rejasida xodi mas'ul bo'lgan ichki audit tadbirlaringni o'tkazilishi 20% foiz, berilgan taklif va tavsiyalarning ijrosi 20% foizni tashkil qilgan. (11, 11.1, 11.2, 11.3 va 11.4-jadvallar)

A.Sadikov

Ichki audit bo'limi boshlig'i

(imzo)

(kun, oy, yil)